

“TA’LIM XIZMATLARI VA TA’LIM XIZMATLARI BOZORINING
NAZARIY HAMDA AMALIY JIHALLARINI O‘RGANISH”

Abdukadirova Kamola Azimovna

Toshkent davlat iqtisodiyot

universiteti tayanch doktoranti

e-mail: a.k.azimovna89@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim xizmatlari va ta'lim xizmatlari bozori tushunchasi o'rganishning nazariy jihatlari ochib berildi. “Ta'lim xizmati” tushunchasiga asosiy yondashuvlar ko'rib chiqildi. Shuningdek ushbu atamalarning mualliflik ta'rifi berilgan

Kalit so'zlar: Nazariy jihatlar, ta'lim, ta'lim xizmatlari, ta'lim xizmatlari bozori dasturi, ishlab chiqaruvchi, iste'molchi, mehnat bozori, resurslar, ta'lim tashkiloti.

**THEORETICAL ASPECTS OF THE STUDY OF THE CONCEPTS OF
EDUCATIONAL SERVICES AS WELL AS THE EDUCATIONAL SERVICES
MARKET.**

Abstract. In this article, the concept of the market of educational services and educational services was revealed theoretical aspects of learning. The main approaches to the concept of “Educational Service” were considered. There is also an author's definition of these terms.

Keywords: Theoretical aspects, education, educational services, educational services market program, producer, consumer, labor market, resources, educational organization.

Kirish

Qadim zamonlardan beri ta'lim ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlaydigan inson faoliyatidir. U jamiyat hayotining eng muhim sohalaridan biri bo'lib, mamlakatning milliy xavfsizligini, iqtisodiy o'sishini, ijtimoiy barqarorligini va raqobatbardoshligini ta'minlaydi. Insoniyatning barcha madaniy hamda ilmiy yutuqlarini ta'lim tufayli deya olamiz.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi qonunida ta'lim jarayoniga quyidagicha ta'rif berilgan: “ta'lim — ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon”. [2] Shu bilan birga, ta'lim iqtisodiyotning ijtimoiy-madaniy salohiyatini rivojlantirishga va ko'paytirishga qaratilgan muassasalar, korxonalar va tashkilotlar majmuasidir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Ta'lim sohasining asosiy faoliyati ta'lim xizmatlarini ko'rsatish, xizmat qanday shaklda ekanligini esa ta'lim muassasasi mahsuloti belgilab beradi. Ushbu kontseptsiyani o'rganishda olimlarning bir qator yondashuvlar mavjud. Ammo bir qator ishlarda ta'lim xizmati ma'lum bir natijaga erishish uchun ma'lum ma'lumotlarni uzatish jarayoni sifatida qaraladi. Shunday qilib, E. D. Lipkina ta'lim xizmati deganda "inson va jamiyatning intellektual rivojlanish va kasbiy ko'nikmalarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun foydalaniladigan bilim va ma'lumotlarning umumiylikini" tushunadi. [3; 36] Zaychikova S.A. fikriga ko'ra, ta'lim xizmatlari bu - inson kapitalini oshirishga qaratilgan davlat, jamiyat va shaxs ehtiyojlarini qondirish uchun foydalaniladigan ko'nikma, bilim va tajribalarning muayyan tizimidir. [4; 8] Son T.A. esa "Ta'lim xizmatlari -bu universitetning boshqaruv, o'quv va ma'muriy faoliyati natijasi bo'lib, u shaxsning kasb-hunar egallashga bo'lgan talabini qondirish, ishchi kuchini qayta tayyorlash va malakasini oshirishga xizmat qiladigan faoliyatdir", deb hisoblaydi. [5; 202]

Mamlakatimiz iqtisodiyotining bozor munosabatlariga o'tishi mobaynida "Ta'lim xizmatlari bozori" degan yangi tushuncha paydo bo'ldi. Bu munosabatlar oliy maktabning barcha faoliyatini butunlay boshqacha tashkil etishni talab qildi. Iqtisodiy - ijtimoiy vaziyatga moslashishning yangi mexanizmlarini faol izlash uchun universitetlarning tez o'zgaruvchan ta'lim xizmatlarini bozor bilan doimiy o'zaro ta'siri kerak bo'ldi. Yuqorida keltirib o'tilgan jarayonda xizmatlarni taqdim etish natijasi juda muhimdir, unda universitetlar o'rtasida ta'lim xizmatlari bozorida raqobat jarayon sodir bo'ladi

Ta'lim xizmatlari bozori - bu bozorning asosiy sub'ektlari ya'ni ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar tomonidan ta'lim xizmatlari va mahsulotlarini sotib olish va sotish amalga oshiriladigan joy. Faqat bu yerda ishlab chiqaruvchilar o'qituvchilar, iste'molchilar esa talbalardir.

Demak, ishlab chiqaruvchi, iste'molchi va mahsulot ta'lim xizmatlari bozorining uch muhim tashkil etuvchisi hisoblanadi va ularning har biri talab, taklif va narx toifalari bilan bog'liq. Sotilgan mahsulotning o'ziga xosligi bilan ushbu bozor to'g'ridan-to'g'ri ijtimoiy xizmatlar bozoriga tegishli, uning tarkibiy qismi va shu bilan birga, u bozorning boshqa turlari bilan chambarchas bog'liq: ishchi kuchi, axborot, iste'mol tovarlari, investitsiyalar bozori va boshqalar.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot ishini amalga oshirishda statistik, empirik tahlil qilish asosida mavjud muammolar aniqlab olingan hamda oliy ta'lim va mehnat bozorini bog'liqligini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqot jarayonida mantiqiy fikrlash, empirik tahlil, statistik tahlil va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Xizmat ko'rsatish sohasida bo'layotgan ulkan o'sishlar ta'lim xizmatlarida ham yaqqol kuzatilmoqda. Ushbu tendentsiyaning O'zbekiston respublikasida ham rivojlanayotganini ko'rishimiz mumkin. [10]



1-jadval. O'zbekiston ta'lim sohasi xizmatlar hajmi¹

O'quv yili	Hajmi mlrd so'mda	O'sish surati, %da
2019 – 2020 yil	8539,4	1
2020 – 2021 yil	12102,6	30,8
2021 – 2022 yil	15858,4	14,1
2022 – 2023 yil	24533,1	23,1
2023 - 2024 yil	30036,5	13,4

Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2022- yil yanvar oyiga nisbatan o'sish sur'ati 2023 – yil yanvar oyida 110,3 % ni tashkil etyapti. 2019 yilda aholiga ko'rsatilganta'lim xizmatlar 380,6 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, [11] 2023 yilda bu miqdor 1 125,5 mlrd. so'mga ko'tarildi. Yuqoridagi ma'lumotlar ta'lim xizmat ko'rsatish sohasini jadal rivojlanayotgan soha sifatida o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Xulosa

Olingan ma'lumotlarni tahlil qilish asosida shuni aytish mumkinki, ilm, bilim ta'lim, ta'lim xizmatlari hamda ta'lim xizmatlari bozori tushunchalari bir biriga uzviy bogliq bo'lgan piramidadir. Har bir so'zning nazariy asoslari kengayib borish shaklida izohlanadi. Ilimni dunyoda bor ma'lumotlar to'plami deb qarasaq, bilim ilimning ta'lim jarayonida inson ongiga o'zlashtirilgan qismidir. Demak, talim bu jarayon. Talim xizmatlarining nazariy jihatlariga kelib to'xtaladigan bo'lsak, bu ta'lim jarayonida ko'rsatiladigan faoliyat. Iqtisodiyotning ajralmas elementi bo'lib kelayotgan ta'lim xizmatlari bozori tushunchasiga bir so'z bilan joy deb tarif bergan bo'lardik.

Shunday qilib, ta'lim xizmatlari bozori - biron bir ta'lim turini olish zarurati bo'lgan odamlar hamda ularga kerakli darajada ta'lim berishga qodir bo'lgan shaxslarning ta'lim muassasalaridagi to'plamidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 50-modda.
<https://constitution.uz/oz/clause/index>
2. Ta'im to'g'risidagi qonun, 1-bob. Umumiy qoidalar, 3-modda. Asosiy tushunchalar
3. Липкина Е.Д. Конкурентоспособность вузов на современном рынке образовательных услуг: Монография. – Омск: Изд-во ОмГПУ, 2006. – 136 с.
4. Зайчикова С.А. Новый закон об образовании. Куда пойдем: к инновациям или к стагнации? // Высшее образование сегодня. 2011. № 1. С. 8–12.
5. Сон Т.А. Инновационные технологии в образовании: стимулы и препятствия // Вестник ННГУ. Сер.: Инновации в образовании. 2005. Вып. 1(6). С. 202–206.
6. Ченцов А.А. О бизнесе образовательных услуг // Высшее образование в России. 1999. № 2. С.120–123
7. Котлер Ф. Основы маркетинга. М., 1990. С.638.

¹ https://stat.uz/images/uploads/reliz2021/xizmatlar-sohasi-20_02_2024_uzb.pdf

8. <https://uzreport.news/society/biz-islohotlarimizning-birinchi-kunidan-boshlab-ta-lim-va-inson-kapitalini-rivojlantirishg>

9. Кручинина Р.С. КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ ПРИВЕДЕНИЯ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ К ЗАПРОСАМ ПОТРЕБНОСТЯМ РЫНКА ТРУДА. Методическое пособие. С-11

10. https://stat.uz/images/uploads/reliz2021/xizmatlar-sohasi-_20_02_2023_uzb.pdf

11. https://stat.uz/uploads/docs/usluga_yan_2019_uz.pdf

